XALQ DEPUTATLARI MARHAMAT TUMANI KENGASHINING
Q A R O R I

2025-yil 29-dekabr VII-16-96-1-24-K/25 Marhamat tumani

Marhamat tumanining 2026-yilgi mahalliy byudjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-24-moddalari, Byudjet kodeksining 27-99-moddalari, “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat Byudjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-1105-son Qonuniga muvofiq xalq deputatlari Andijon viloyati Kengashining 2025-yil 26-dekabrdagi VII-15-297-1-0-K/25-son qarori hamda Andijon viloyati Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2025-yil 26-dekabrdagi 01/05/2-15-/2482-sonli xatini inobatga olib, xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat Byudjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-1105-son Qonuni hamda xalq deputatlari Andijon viloyat Kengashining 2025-yil 26-dekabrdagi VII-15-297-1-0-K/25-son qarori (keyingi o‘rinlarda qaror deb yuritiladi) rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Qarorga muvofiq, Marhamat tuman byudjetining 2026-yilgi daromadlari 142 325 750 ming so‘m va xarajatlari esa 142 325 750 ming so‘mga ma’lumot uchun qabul qilinganligi Marhamat tuman byudjetining shaxsiy g‘azna hisobvarag‘ida turgan byudjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori 650.0 mln. so‘m etib belgilanganligi inobatga olinsin.

3. Marhamat tumanining 2026-yil uchun mahalliy byudjet daromadlari prognozi 1-ilovaga muvofiq hamda Marhamat tumani mahalliy byudjeti xarajatlarining 2026-yil uchun asosiy ko‘rsatkichlari 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Tuman byudjeti zaxira jamg‘armasi hajmi 2026-yil uchun 1 786 216 ming so‘m miqdorida belgilansin.

Bunda, zaxira jamg‘armasi mablag‘larini amaldagi byudjet qonunchiligiga muvofiq, byudjet tizimi byudjetlari shakllantirilayotganda oldindan nazarda tutib bo‘lmaydigan xarajatlarni, shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlik yuzaga

kelgan vaziyatlarda amalga oshirilishi zarur bo‘lgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo‘naltirilishi ta’minlansin.

5. Tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari Sh.Abdurazzaqov, tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (J.Boltayev), tuman soliq inspeksiyasi (X.Isayev) bilan birgalikda 2026-yil mahalliy byudjeti uchun belgilangan ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarilishini ta’minlash choralarini ko‘rsin.

6. Hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilar har chorak yakuni bilan byudjet mablag‘larining samarali va maqsadli sarflanganligi, xarajatlarning amaliy natijalari yuzasidan xalq deputatlari tuman Kengashiga hisobot berib borsinlar.

Bunda, hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilar:

a) byudjetdan ajratilgan mablag‘lardan maqsadli va samarali foydalanish, xususan ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat, dori-darmon, kommunal xizmatlar va davlat dasturlari uchun belgilangan xarajatlarni to‘liq rejalashtirilishi va o‘z vaqtida to‘lanishi;

b) o‘zlarining va tasarrufidagi tashkilotlarning xarajatlar smetasi va shtat jadvallari hamda daromadlar va xarajatlar smetalarining to‘g‘ri tuzilishi;

d) byudjetdan ajratilgan mablag‘larning maqsadli sarflanishi va maqsadli indikatorlarning to‘liq bajarilishi;

e) tasarrufidagi tizim tashkilotlariga byudjetdan ajratiladigan mablag‘larning to‘g‘ri taqsimlanishi;

f) o‘z tasarrufidagi tizimda byudjet intizomiga amal qilinishi ustidan nazorat qilinishini;

g) byudjet jarayonining ochiqligini ta’minlash maqsadida rasmiy veb-saytlarda ma’lumotlarni joylashtirib borilishini ta’minlasinlar.

7. Mazkur qaror tegishli tahririyatlar va ommaviy axborot vositalarida yoritilishi tavsiya etilsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

8. Ushbu qaror O‘zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksining 99-moddasiga muvofiq Qonunga muvofiqlashtirilgan holda qayta ko‘rib chiqilgan hamda tegishli ilovalar bilan to‘ldirilgan.

9. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari Marhamat tuman Kengashining Mahalliy byudjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari doimiy komissiyasi (B.Abdullajonov) hamda tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari Sh.Abdurazzaqov zimmasiga yuklatilsin.

Sessiya raisi **ABDULLAJONOV BAXTIYOR SODIKJONOVICH**

Xalq deputatlari Marhamat tumani
Kengashining
2025-yil 29-dekabrdagi
VII-16-96-1-24-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Marhamat tumanining 2026-yil uchun mahalliy byudjet daromadlari prognozi

ming so‘m

	Daromad turlari	**Jami prognoz**
1	QQS solig‘i	7 512 000
2	Foyda solig‘i	799 500
3	Aylanmadan olinadigan soliq	6 370 000
4	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	63 048 440
5	Jismoniy shaxslarning mol-mulkini ijaraga berishdan olingan daromadlari bo‘yicha to‘lanadigan daromad solig‘i	696 000
6	Aksiz solig‘i	8 505 000
	shu jumladan:	
	Yakuniy iste’molchilarga benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i	*8 505 000*
	Alkogol mahsulotlari uchun aksiz solig‘i	
7	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	3 786 000
8	Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i	11 997 000
9	Jismoniy shaxslar yer solig‘i	22 359 000
10	Yuridik shaxslar yer solig‘i	7 568 000
11	Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	379 000
12	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	2 927 600
	Ma’lumot uchun	
	Qishloq xo‘jaligi korxonalari suv solig‘ining 40 foizini qaytarish (PQ-5)	- 1 728 400
13	Davlat ulushi bo‘yicha dividendlar va davlat korxonalari foydasidan ajratmalar	
14	Davlat boji	2 653 200
15	Yig‘imlar	770 560

16	Jarimalar	2 858 450
17	Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari	96 000
	JAMI:	**142 325 750**
1	**Tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar**	**0**
	shundan, aksiz solig‘i tushumlari hisobidan ajratiladigan mablag‘lar	

Xalq deputatlari Marhamat tumani
Kengashining
2025-yil 29-dekabrdagi
VII-16-96-1-24-K/25 -son qaroriga
2-ilova

Marhamat tumani mahalliy byudjeti xarajatlarining 2026-yil uchun asosiy ko‘rsatkichlari

ming so‘m

T/r№	Hududiy budjet mablag‘lari taqsimlovchilar nomi	Cheklangan miqdor
Xarajatlar miqdori, jami		**142 325 750**
1	Maktabgacha va mMaktab ta’limi bo‘limi	46 583 711
	shundan:	
	"Mening maktabim"	2 657 400
3	Madaniyat bo‘limi	8 821 324
4	Yoshlar ishlari agentligining hududiy bo‘limi	5 677 599
5	Sport bo‘limi	12 229 307
6	Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi	1 492 012
7	Qishloq xo‘jaligi bo‘limi	2 109 509
8	Irrigatsiya bo‘limi	2 050 122
9	Iqtisodiyot va moliya bo‘limlarini saqlash xarajatlari	2 069 007
9	Ijtimoiy ximoya milliy agentligining hududiy bo‘limi Ijtimoiy ko‘nikma markazlari xarajatlari	146 700
10	Hokimiyat	40 371 633
	shundan:	
	Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi	*23 348 979*
	"Mahalla byudjeti" jamg‘armasi mablag‘lari	*2 003 000*
	Zahira jamg‘armasi	*1 786 216*
11	Hokimiyat (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi)	958 796
	shundan:	
	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalarini saqlash xarajatlari	*83 504*
	Axborot-kutubxona markazlari	*875 292*
12	Obodonlashtirish boshqarmasi	19 816 330

13	Boshqa tashkilotlar	0,0